

<https://iau-jaesa.uz/article/yxcv54waonin/>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21361104>

UDK: 336.27(575.1)

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT QARZINING YALPI ICHKI MAHSULOTGA NISBATI DINAMIKASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Omonova Shahlo Raximjon qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti,
Matematik-iqtisodiyot mutaxassisligi 1-kurs magistranti

omonovashahlo77@gmail.com

+998909526577

Vaxabov Abdurahim Vosiqovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Makroiqtisodiyot kafedrasini mudiri, i.f.d., professor (ilmiy rahbar)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati ko‘rsatkichining 2017-2026-yillar mobaynidagi dinamikasi va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning rasmiy statistik ma‘lumotlaridan foydalanilgan holda, davlat qarzining tashqi va ichki tarkibi, kreditorlar bo‘yicha taqsimlanishi, shuningdek qarz yukining o‘sish va pasayish omillari o‘rganilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2020-yildagi pandemiya davrida keskin oshgan qarz-YaIM nisbati so‘nggi yillarda iqtisodiyotning jadal o‘sishi hisobiga nisbiy pasayish tendensiyasini namoyon etmoqda, biroq qarzning mutlaq hajmi muttasil o‘sib bormoqda. Maqola yakunida davlat qarzini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat qarzi, yalpi ichki mahsulot, qarz-YaIM nisbati, tashqi qarz, ichki qarz, byudjet taqchilligi, qarz barqarorligi, fiskal siyosat, qarzni boshqarish, O‘zbekiston.

Аннотация. В данной статье анализируется динамика и тенденции развития показателя отношения государственного долга к валовому внутреннему продукту (ВВП) Узбекистана за период 2017-2026 годов. На основе официальных статистических данных Министерства экономики и финансов и Центрального банка изучены внешняя и внутренняя структура государственного долга, распределение по кредиторам, а также факторы роста и снижения долговой нагрузки. Результаты анализа показывают, что соотношение долга к ВВП, резко возросшее в период пандемии 2020 года, в последние годы демонстрирует тенденцию к относительному снижению за счёт опережающего роста экономики, хотя абсолютный объём долга продолжает увеличиваться. В заключение статьи представлены практические рекомендации по повышению эффективности управления государственным долгом.

Ключевые слова: государственный долг, валовой внутренний продукт, отношение долга к ВВП, внешний долг, внутренний долг, бюджетный дефицит, долговая устойчивость, фискальная политика, управление долгом, Узбекистан.



Abstract. *This article analyzes the dynamics and development trends of Uzbekistan's public debt-to-GDP ratio over the period 2017-2026. Drawing on official statistical data from the Ministry of Economy and Finance and the Central Bank, the study examines the external and domestic composition of public debt, its distribution among creditors, and the factors driving the rise and decline of the debt burden. The findings show that the debt-to-GDP ratio, which rose sharply during the 2020 pandemic, has shown a relative downward trend in recent years due to GDP growth outpacing debt growth, even as the absolute volume of debt continues to increase. The article concludes with practical recommendations for improving the efficiency of public debt management.*

Keywords: *public debt, gross domestic product, debt-to-GDP ratio, external debt, domestic debt, budget deficit, debt sustainability, fiscal policy, debt management, Uzbekistan.*

KIRISH

Bugungi globallashtirilgan iqtisodiy sharoitda davlat qarzi nafaqat byudjet taqchilligini qoplash vositasi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlashning muhim moliyaviy instrumentiga aylangan. Biroq, qarz hajmining nazoratsiz o'sishi makroiqtisodiy barqarorlikka, milliy valyuta kursiga va davlat byudjetining uzoq muddatli barqarorligiga jiddiy tahdid solishi mumkin. Shu sababli davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati ko'rsatkichi xalqaro amaliyotda qarz yukini va uning iqtisodiyot uchun xavfsizlik darajasini baholashning asosiy mezon sifatida qaraladi.

So'nggi o'n yillikda O'zbekiston iqtisodiyoti faol islohotlar bosqichini boshidan kechirmoqda: bozor iqtisodiyoti tamoyillariga o'tish, eksport-import operatsiyalarini erkinlashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va davlat dasturlarini moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya bozorlaridan mablag' jalb qilish miqyosi sezilarli darajada kengaydi. Natijada, 2017-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda davlat qarzining nominal hajmi qariyb to'rt baravar oshdi. Bunday sharoitda qarz-YaIM nisbatining dinamikasini, uni shakllantiruvchi omillarni va rivojlanish tendensiyalarini chuqur ilmiy tahlil qilish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda davlat qarzining YaIMga nisbati ko'rsatkichining 2017-2026-yillar mobaynidagi dinamikasini tahlil qilish, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va qarzni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, davlat qarzi va uning YaIMga nisbati ko'rsatkichining nazariy-uslubiy asoslarini, shu jumladan xalqaro qarz barqarorligi mezonlarini o'rganish; ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bankning rasmiy statistik ma'lumotlari asosida ko'rsatkichning yillar va choraklar kesimidagi dinamikasini tahlil qilish; uchinchidan, qarz tarkibi (tashqi/ichki, kreditorlar, valyuta) va uning nisbatga ta'sirini baholash; to'rtinchidan, xalqaro tajriba va me'yorlar bilan taqqoslash asosida amaliy takliflar shakllantirish.



Maqola tarkibi quyidagicha tashkil etilgan: birinchi bo‘limda mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan, ikkinchi bo‘limda tadqiqot metodologiyasi bayon etilgan, uchinchi bo‘limda statistik ma’lumotlar asosida tahlil va natijalar keltirilgan, yakunda esa xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Davlat qarzi nazariyasi iqtisodiy fikr tarixida uzoq vaqtdan beri muhokama mavzusi bo‘lib kelmoqda. Keynscha yondashuvga ko‘ra, iqtisodiy inqiroz yoki pasayish davrida davlat qarz olish hisobiga xarajatlarni kengaytirishi, yalpi talabni rag‘batlantirishi va shu orqali iqtisodiy faollikni tiklashi mumkin. Bunga qarama-qarshi o‘laroq, neoklassik yondashuv tarafdorlari davlat qarzining haddan tashqari o‘sishi xususiy investitsiyalarni «siqib chiqarishi» (crowding-out effekti), foiz stavkalarining oshishiga va uzoq muddatda iqtisodiy o‘sinh sur‘atining pasayishiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Ushbu ikki qarama-qarshi nazariy yo‘nalish davlat qarzini boshqarishda muvozanatli yondashuvning zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro amaliyotda davlat qarzining xavfsiz darajasini baholash uchun YaIMga nisbat ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Yevropa Ittifoqining 1992-yilgi Maastricht bitimida belgilangan mezonlarga ko‘ra, davlat qarzi YaIMning 60 foizidan oshmasligi tavsiya etiladi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Yevropa Ittifoqi rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlari uchun esa 50 foiz atrofidagi darajani xavfsiz chegara sifatida belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat qarzi to‘g‘risida»gi qonunida ham davlat qarzining YaIM prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshmasligi belgilab qo‘yilgan, 50 foizga yetganda esa Hukumat qo‘shimcha nazorat chora-tadbirlarini ko‘rishi shart qilib qo‘yilgan.

O‘zbek iqtisodchi-tadqiqotchilarining so‘nggi ishlarida mavzu turli qirralardan yoritilgan. Boxodirxonova (2025) davlat qarzining kelib chiqish sabablari, jahon mamlakatlari tajribasini qiyosiy tahlil qilib, O‘zbekistonning davlat qarzi tarkibini, kreditorlar bo‘yicha taqsimlanishini va «O‘zbekiston-2030» strategiyasi doirasidagi qarz boshqaruvi yo‘nalishlarini batafsil yoritgan. Muhammadjonov (2023) davlat qarzini boshqarish zarurligi va uning institutsional-huquqiy asoslarini tahlil qilgan. Eshonqulov (2025) esa davlat ichki va tashqi qarzlarini samarali boshqarishning nazariy va amaliy yondashuvlarini, xalqaro tajribani va milliy qarz boshqaruvi tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarini ko‘rib chiqqan.

Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarning aksariyati qarzning umumiy holatini tasviriy tarzda yoritish bilan cheklangan bo‘lib, qarz-YaIM nisbati ko‘rsatkichining ko‘p yillik va chorak kesimidagi dinamik tendensiyasini, shuningdek bu nisbatga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillarni (YaIM o‘sinh sur‘ati, valyuta kursi o‘zgarishi, byudjet taqchilligi) miqdoriy va qiyosiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qiluvchi ishlar nisbatan kamchilik qiladi. Mazkur maqola aynan mana shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga, ko‘rsatkichning 2017-2026-yillar mobaynidagi rivojlanish tendensiyalarini rasmiy statistik ma’lumotlar asosida yoritishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining «Davlat qarzi holati to‘g‘risida»gi davriy hisobotlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy



bankining to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz bo'yicha tahliliy sharhlari, shuningdek Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining tegishli statistik va prognoz materiallari asosiy ma'lumot manbai sifatida olingan. Tahlil 2017-2026-yillarni qamrab oladi, bunda 2026-yil ko'rsatkichlari rasmiy prognoz xarakteriga ega.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanilgan: vaqt qatorlari (dinamika) tahlili — ko'rsatkichning yillar bo'yicha o'zgarishini aniqlash uchun; qiyosiy tahlil — O'zbekiston ko'rsatkichlarini xalqaro me'yorlar (Maastrixt mezonlari, IMF/YeI tavsiyalari) bilan solishtirish uchun; statistik guruhlash va grafik usul — qarzning tarkibiy qismlari (tashqi/ichki, kreditorlar, valyuta) bo'yicha taqsimlanishini vizuallashtirish uchun; mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv — olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar shakllantirish uchun.

Tadqiqot davomida muhim uslubiy jihatga alohida e'tibor qaratildi: O'zbekistonning yalpi ichki mahsulot statistikasi davriy ravishda qayta ko'rib chiqilishi (revizyon qilinishi) tufayli, ayni bir yil uchun turli sanalarda e'lon qilingan davlat qarzi-YaIM nisbati ko'rsatkichlari bir-biridan biroz farq qilishi mumkin. Shu sababli maqolada eng so'nggi rasmiy nashr etilgan ma'lumotlar (2026-yil fevral holatiga) asos qilib olindi, zarur o'rinlarda esa ilgari e'lon qilingan dastlabki (prognoz) ko'rsatkichlar bilan taqqoslash orqali ma'lumotlarning ishonchliligi va dinamikasi yanada ochib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonda davlat qarzining mutlaq hajmi so'nggi to'qqiz yil mobaynida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 1-jadval va 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yil yakunida 11,6 mlrd. AQSH dollarini (YaIMning 16,1 foizi) tashkil etgan davlat qarzi 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi davrida 23,4 mlrd. dollarga, ya'ni YaIMning 33,4 foiziga yetdi — bu ko'rsatkichning to'qqiz yillik davr ichidagi eng yuqori sakrashlaridan biri bo'lib, pandemiya davridagi qo'shimcha ijtimoiy-tibbiy xarajatlar va iqtisodiy faollikning qisqarishi bilan izohlanadi.

1-jadval. O'zbekistonda davlat qarzi va uning YaIMga nisbati dinamikasi (2017-2026)

Yil	Davlat qarzi hajmi, mlrd. AQSH dollarida	YaIMga nisbati, %
2017	11,6	16,1
2020	23,4	33,4
2024	40,2	33,1
2025	46,8	31,9
2026 (prognoz)*	≈53,0	37,9*

* 2026-yil ko'rsatkichi 2025-yil o'rtalarida e'lon qilingan rasmiy prognoz asosida keltirilgan. Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.





1-rasm. O'zbekistonda davlat qarzining YaIMga nisbati dinamikasi (2017-2026)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2020-yildan keyingi davrda nisbat ko'rsatkichi nisbatan barqaror diapazonda (33 foiz atrofida) saqlanib qoldi, biroq 2025-yilda muhim burilish nuqtasi kuzatildi: davlat qarzi mutlaq ifodada 6,6 mlrd. dollarga (+16,4 foiz) oshib, 46,8 mlrd. dollarga yetgan bo'lsa-da, YaIMga nisbati 31,9 foizgacha pasaydi. Bu 2022-yildan buyon qarz yukining birinchi marta nisbiy pasayishi bo'lib, asosiy sababi YaIMning nominal o'sish sur'ati (21,1 foiz) davlat qarzining o'sish sur'atidan (16,7 foiz) yuqori bo'lganligi bilan bog'liq, ya'ni iqtisodiyotning real va narx omillari hisobidan kengayishi qarz yukini «yumshatib» yubordi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2025-yilning o'rtalarida e'lon qilingan rasmiy prognozlarda yil yakuniga qarz-YaIM nisbatining 36,7 foizgacha yetishi kutilgan edi, biroq haqiqiy natija prognozdan sezilarli darajada past — 31,9 foiz bo'lib chiqdi. Bu holat, bir tomondan, iqtisodiy o'sish sur'atlarining dastlabki taxminlardan yuqori bo'lganidan, ikkinchi tomondan, fiskal intizomning nisbatan mustahkamlanganidan dalolat beradi.

2025-yil davomidagi choraklik dinamika ko'rsatkichning yil ichida notekis rivojlanganini ko'rsatadi: agar birinchi chorakda qarz 5,9 foizga (2,4 mlrd. dollar), ikkinchi chorakda 2,1 foizga (898 mln. dollar), uchinchi chorakda esa atigi 1,1 foizga (473 mln. dollar) oshgan bo'lsa, to'rtinchi chorakda o'sish sur'ati yana 6,6 foizgacha (2,9 mlrd. dollar) tezlashdi. Bunday notekis dinamika yil davomida tashqi qarz jalb qilish jadvalining byudjet ehtiyojlariga, jumladan yil oxiridagi xarajatlar cho'qqisiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

2025-yil yakuniga ko'ra davlat qarzining tarkibiy tuzilishi quyidagicha shakllangan (2-jadval): qarzning katta qismi — 85 foizi yoki 39,8 mlrd. dollari tashqi qarz hissasiga to'g'ri keladi, bu YaIMning 27,1 foizini tashkil etadi (2024-yilda 29,3 foiz bo'lgan). Qolgan 15 foizi, ya'ni 7,0 mlrd. dollari ichki qarz bo'lib, YaIMning atigi 4,8 foizini tashkil etadi. Demak, qarz yukining asosiy qismi tashqi manbalar hisobiga shakllanib, bu o'z navbatida valyuta kursi o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatarlarni



kuchaytiradi: tashqi qarzning 83 foizi chet el valyutasida, jumladan taxminan 65 foizi AQSH dollarida nominallashtirgan.

2-jadval. 2025-yil yakuniga ko'ra davlat qarzining tashqi va ichki tarkibi

Ko'rsatkich	Hajmi, mlrd. doll.	YaIMga nisbati, %
Tashqi qarz	39,8	27,1
Ichki qarz	7,0	4,8
Jami davlat qarzi	46,8	31,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tashqi qarz tarkibiy jihatdan uch yo'nalishdagi kreditorlardan jalb qilingan: xalqaro moliya institutlari (Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki yetakchilik qilgan holda) tashqi qarzning 56 foizini, xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlari (xususan, Xitoy va Yaponiya tashkilotlari) 29 foizini, xalqaro obligatsiyalar orqali jalb qilingan mablag'lar esa qolgan qismini tashkil etadi. Kreditorlar tarkibining bunday diversifikatsiyalashgani, bir tomondan, yagona kreditorga bog'liqlik xavfini kamaytiradi, ikkinchi tomondan, qarz mablag'larining yarmidan ko'pi byudjet taqchilligini moliyalashtirishga, qolgan qismi esa investitsiya loyihalariga yo'naltirilgani qarzning amaliy samaradorligi masalasini dolzarb qilib qo'yadi.

O'zbekistonning qarz-YaIM nisbati xalqaro va milliy me'yoriy chegaralar bilan solishtirilganda nisbatan xavfsiz zonada joylashgan: 31,9 foizlik ko'rsatkich Maastricht mezonidagi 60 foizlik chegaradan, shuningdek Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiya etgan 50 foizlik darajadan sezilarli darajada past. Shu bilan birga, xalqaro reyting agentliklarining (jumladan, S&P Global Ratings) prognozlariga ko'ra, davlat tomonidan kafolatlangan qarzni ham hisobga olgan holda yalpi davlat qarzining YaIMga nisbati 2024-yildagi 33 foiz darajasidan 2028-yilga borib 40 foizgacha o'sishi mumkin. Bundan tashqari, davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va banklarning kafolatsiz tashqi qarzi (korporativ tashqi qarz) so'nggi yillarda davlat qarzidan tezroq sur'atlarda o'sib, 2025-yil yakunida birinchi marta davlat qarzi hajmidan oshib ketdi (mos ravishda 41,7 mlrd. va 40,5 mlrd. dollar). Garchi bu mablag'lar rasmiy ravishda davlat qarzi tarkibiga kirmasa-da, ularning katta qismi davlat ulushi yuqori bo'lgan tashkilotlarga tegishli ekanligi potensial fiskal xavf (kvazi-davlat qarzi xavfi) sifatida baholanishi lozim.

Rasmiy fiskal strategiya hujjatlariga ko'ra, 2026-2027-yillarda davlat qarzining yanada o'sishi kutilmoqda: 2027-yil oxiriga borib uning hajmi 55,9 mlrd. dollarga, YaIMga nisbati esa 36-38 foiz oralig'iga yetishi prognoz qilinmoqda. Biroq, 2025-yilning haqiqiy natijalari (31,9 foiz) ilgari e'lon qilingan prognozdan (36,7 foiz) sezilarli darajada past chiqqani inobatga olinsa, kelgusi yillardagi haqiqiy ko'rsatkichlar ham rasmiy prognozlardan farqli, ya'ni iqtisodiy o'sish sur'atiga bog'liq holda nisbatan pastroq bo'lishi mumkinligini taxmin qilish mumkin. Shunga qaramay, qarzning mutlaq hajmi muttasil o'sib borayotgani, shuningdek korporativ kvazi-davlat qarzining tezlashgan o'sishi davlat qarzini boshqarish siyosatida ehtiyotkorlikni saqlab qolish zarurligini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda davlat qarzining YaIMga nisbati ko'rsatkichi 2017-yildan 2020-yilgacha bo'lgan davrda keskin o'sgan, 2020-2024-yillarda nisbatan barqaror diapazonda saqlanib qolgan, 2025-yilda esa — iqtisodiy o'sish sur'atining qarz o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi hisobiga — birinchi marta sezilarli pasayish tendensiyasini namoyon etgan. Shu bilan birga, qarzning mutlaq hajmi muttasil o'sib borishi, tashqi qarz va valyuta xavfining yuqoriligi, hamda korporativ kvazi-davlat qarzining tezlashgan o'sishi kelajakda qarz barqarorligiga nisbatan ehtiyotkorlikni talab qiladigan omillar sifatida baholanishi lozim. Umuman olganda, mavjud ko'rsatkich xalqaro (Maastrixt, IMF/YeI) va milliy qonunchilikda belgilangan xavfsiz chegaralardan ancha past bo'lib, bu O'zbekiston uchun qo'shimcha qarz olish va investitsiya imkoniyatlarini saqlab qolmoqda, biroq bu imkoniyatdan foydalanish faqat samarali boshqaruv sharti bilangina ijobiy natija beradi.

O'tkazilgan tahlil asosida davlat qarzini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Byudjet intizomini mustahkamlash — konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini YaIMning 3 foizidan past darajada ushlab turish orqali yangi qarz olish ehtiyojini cheklash.
2. Qarz tarkibini diversifikatsiyalash — valyuta tarkibida milliy valyuta ulushini oshirish va o'zgaruvchan foiz stavkasidagi qarzlarni kamaytirish orqali valyuta va foiz stavkasi xavflarini pasaytirish.
3. Qarz mablag'larining samaradorligini oshirish — jalb qilingan mablag'larni faqat yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka ega, eksport salohiyatini oshiruvchi investitsiya loyihalariga yo'naltirish.
4. Kvazi-davlat qarzini monitoring qilish — davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va banklarning tashqi qarzini muntazam tahlil qilish va potensial fiskal majburiyatlarni byudjet rejalashtirishida hisobga olish.
5. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish — qarz-YaIM nisbatini pasaytirishning eng barqaror yo'li sifatida YaIMning real o'sish sur'atini yuqori darajada ushlab turish, eksport va investitsiya muhitini yanada yaxshilash.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda davlat qarzini boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda, biroq qarz barqarorligini uzoq muddatli istiqbolda ta'minlash uchun fiskal intizom, tarkibiy diversifikatsiya va iqtisodiy o'sish omillarini uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvni davom ettirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Davlat qarzi to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-836-son, 2022-yil 4-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. PF-158-son, 2023-yil 11-sentyabr.
3. Boxodirxonova Sh.B. Davlat qarzi va uning oqibatlari // Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4, № 13. – В. 149-159.





4. Muhammadjonov B.B. Davlat qarzi: uni boshqarish zarurligi va dolzarbligi. – 2023.
5. Eshonqulov I.Z. Davlat ichki va tashqi qarzlarini samarali boshqarish // Konferensiya materiallari. – 2025.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat qarzi holati to‘g‘risida statistik ma’lumotlar, 2024-2026. – mof.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz sharhi, 2025-2026. – cbu.uz.
8. International Monetary Fund. World Economic Outlook va Debt Sustainability Framework hisobotlari, 2024-2025. – imf.org.
9. The World Bank. Uzbekistan: Country Economic Update, 2024-2025. – worldbank.org.
10. S&P Global Ratings. Republic of Uzbekistan: Sovereign rating report, 2025. – spglobal.com.
11. Gazeta.uz. O‘zbekiston davlat qarzi 46,8 mlrd. dollarga yetdi // tahliliy maqola, 2026-yil 23-fevral. – gazeta.uz.
12. Sputnik O‘zbekiston. O‘zbekiston davlat qarzi qariyb 47 mlrd. dollarga yetdi // infografika, 2026-yil 24-fevral. – oz.sputniknews.uz.

